

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA O'QUV METODIK ISHLARNI
TASHKILLASH

Mahmudova Gulg'uncha Erkinjonovna

Farg'ona ko'p tarmoqli texnikum o'quv-metodik bo'lim boshlig'i,

Kuramatova Sanobarxon Ashurovna

Farg'ona neft-gaz sanoati kolleji o'quv- metodik bo'lim boshlig'i

Annotatsiya: *Uzluksiz professional ta'lim ixtiyoriylik tamoyiliga asoslanganligi sababli ham xorijda sinovdan o'tgan ta'limning jozibadorligini ta'minlash prinsiplari amaliyotga joriy etiladi.*

Kalit so'zi: *Ta'lim, metodika, shaxs, tarbiya, shakllanish, tamoyillar, usul, inson, komillik*

KIRISH

Mamlakatimizda hozirgi kunda barcha sohalarda tubdan ozgarishlar bolmoqda. Buning asosiy sababi Respublikamiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning davlatimizda barcha sohalarni rivojlantirishga katta etibor qaratmoqda. Bu etiborning amaliy ahamiyatini sohalardagi o'zgarishlar orqali ko'rishimiz mumkin. Mana shu sohalardan biri ta'lim yo'nalishida ham Prezidentimiz tomonidan juda ko'plab ishlar olib borilmoqda. Bu islohotlarning korinishini quyidagi asoslarda uchratishimiz mumkin. 2022-2026-yillarga moljallangan yangi Ozbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida, 2020-yil 23-sentyabrdagi yangi tahriridagi Talim to'g'risida”gi qonunda va boshqa qarorlarda oz aksini topgan. Talim to'g'risidagi qonunning 5-moddasida ta'lim tashkilotlarida, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirish, ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash haqidagi fikrlarni ta'minlash haqidagi fikrlar berilgan. Demak, mana shu qaror va qonunlar mazmunidan shuni tushunish mumkinki, yoshlarimizning ham talimiy, ham ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishlari muhim hisoblanadi. Ushbu qonunning 4 - moddasida quyidagi bandlari ham o'quvchilarning ma'naviy axloqiy jihatdan komil inson bo'lib yetishishiga xizmat qiladigan fikrlar berilgan; - ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi; -ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatlar kabi asosiy prinsiplari ko'rsatib o'tilgan. Endilikda professional ta'lim muassasalari oldiga faqatgina o'qimishli insonnigina emas, balki voqealarni oldindan ko'ra biladigan, to'g'ri qaror qabul qila olish uquviga ega, o'zim o'zi rivojlantirish zaruriyatini tushunib yetadigan oqil va barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi qo'yilmoqda. Darhaqiqat, o'qimishli, ruhan tetik, sog'lom va jismonan baquvvat kishilargina istiqbol va taraqqiyotini bosib o'ta oladi.

Professional ta'lim muassasalari boshqaruv hamda pedagog kadrlarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq professional ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishning asosini tashkil etadi. Professional ta'lim tizimining maqsadi va talabi — professional ta'lim muassasalarida o'qigan yoshlar aniq ish o'rniga, o'z kasbi bo'yicha zarur bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi shartligidadir. Ayni vaqtda ushbu tizim oldida o'quv adabiyotlari, kitob va darsliklar, elektron ta'lim resurslari, innovatsion, raqamlashtirilgan ta'lim texnologiyalarini to'liq yangilash, ochiq elektron resurslar tarmog'iga ulash, o'quv adabiyotlarini xorijiy davlatlardan olib kelish, qayta ishlash, chop etish va tarqatish, kelajak kutubxonalari va auditoriyalarini yaratish muhim vazifa etib belgilangan. Farmonga muvofiq, professional ta'lim muassasalari maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi toifalarga ajratildi: Birinchi toifa — ta'limning Xalqaro standart tasniflagichining 3-darajasiga mos keluvchi dasturlar asosida 9-sinf bitiruvchilari tarkibidan yoshlarning professional ta'lim olishini ta'minlaydigan 340 ta kasb-hunar maktabi.

Ikkinchi toifa — ta'limning Xalqaro standart tasniflagichining 4-darajasiga mos keluvchi dasturlar asosida iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, strategik muhim ahamiyatga ega loyihalar asosida yaratiladigan yangi ish o'rinlarini malakali mutaxassislar bilan to'ldirishga yo'naltirilgan vazirliklar, idoralar va tashkilotlar tizimidagi 147 ta kollej.

Uchinchi toifa texnikum — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasigacha mos keluvchi va oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlaydigan hamda oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari;

umumiy kompetensiya — bilim, ko'nikma va amaliy tajriba asosida kasbiga yaqin faoliyat turlarining ko'pchiligi uchun umumiy bo'lgan masalalarni hal etishda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish qobiliyati;

O'quv jarayonida zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanish natijasida (ta'lim sifatini oshirish; o'quv tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish; o'qituvchilar yuklamasi va metodik vazifalarni qayta taqsimlash, nostandart o'quv topshiriqlarini tayyorlash, ta'lim oluvchilar bilan individual ishlash va boshqalar natijasida) o'quv jarayonini o'quv-metodik vositalar bilan ta'minlashning tezkorligi ta'minlanadi. Qayd etilganlardan ko'rinib turibdiki, ta'limning zamonaviy tizimida aniq o'quv-metodik vositalarni tanlash ehtiyoji tug'ilganda zamonaviy didaktik vositalariga o'qitishning an'anaviy vositalariga nisbatan ko'proq ustuvorlik beriladi. Ammo, bu ustuvorlik zamonaviy didaktik vositalarining o'qitishning an'anaviy vositalarini butunlay siqib chiqarishini yoki ularni almashtirishni anglatmaydi.

Zamonaviy didaktik vositalarining ham o'ziga xos kamchiliklari bor. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Zamonaviy didaktik vositalari bilan ishlash uchun mos dasturiy ta'minotga ega bo'lish; kompyuterda ishlash ko'nikmasini egallash zarurligi;

kompyuter ekranida katta hajmdagi matnli materiallarni idrok qilishning murakkabligi;

zamonaviy didaktik vositalarining interfaoligining yetarli emasligi; o'quv rejasi bajarilishini bevosita va muntazam nazorat qilish imkonining yo'qligi.

XULOSA

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yaratuvchisi tarzida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, kasbhunar sirlarini o'rganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorgarlik masalasi asosiy muammolar tariqasida ta'lim jarayonining kun tartibida turibdi.

Professional ta'limning yangi tarmog'ida faoliyat yuritadigan barcha direktorlar, direktor o'rinbosarlari, o'qituvchi-pedagoglar, ishlab chiqarish ustalarini saralash, tanlash, tayinlash, qayta tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish, ularning maqomini belgilash va mehnatini rag'batlantirishning yangi tartiblari ishlab chiqishadi va amaliyotga tadbiiq etishadi. Professional ta'lim tizimning asosiy prinsipi esa - avval ish o'rni aniq bo'ladi, ish beruvchi o'zining malaka talablarini, shu kasbning ilmini, o'qitish texnologiyasini beradi, shundan keyingina mutaxassis tayyorlanadi.

Shu o'rinda, bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalar asosida tashkil etish, talabalarning bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ularning mustaqil ishlash qobiliyatlari va amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishda ijobiy samara beradi. Zamonaviy o'quv didaktik vositalardan professional ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarajonida foydalanish, o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga, faol bo'lishiga, tanqidiy fikrlashga undashi, faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasligi, amaliy mashg'ulotlar, mashqlar va topshiriqlar berilishi, mustaqil ta'lim olishga imkon yaratishi, o'quv materiali aniq maqsad va vazifalarga yo'naltirilishi lozim. Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalar asosida ta'limni tashkil etish, o'qitish samaradorligini oshiradi, talabalarning bilimlarini tizimlashtirishni ta'minlaydi, ijobiy qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda kasbga qiziqishlarini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild, –T.: O'zbekiston, 2019.

2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-sonli. "TA'LIM TO'G'RISIDA" gi qonun.

3.Александрова, З.Е. Словарь синонимов русского языка. Практический справочник. – М.: Русский язык, 2001.

4. Hayitov, A., & Mansurova, S. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o`quvchilarida ekologik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Science and innovation*, 1(B7), 1009-1015. 5. Hayitov, A., & Yusupova, I. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o`quvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish usullari. *Science and innovation*.

6. Hayitov, A., & Xo`Shboqova, F. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o`quvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish. *Science and innovation*. 7. Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. *Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar*.

8. Abrorkhonovna, A. K. (2022). formation of a sense of patriotism through tourism in the current textbook" upbringing" of primary education. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 9. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). virtual tour in primary school. *European international journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 10. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdiyeva, S. (2022, June). organization of excursions in primary school classes. In *International Scientific and Current Research Conferences* .

11. Abrorxonova, K. A., & Qizi, S. M. S. (2022). Boshlang `ich sinf tarbiya darslarini tashkil etishning usul va vositalari. *Science and innovation*.